4711327
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6099-son “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni // https://lex.uz/docs/-5077667
17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-noyabrdagi PQ-4881-son “Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori // https://lex.uz/docs/-5080074
18. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 14-avgustdagi 658-son “O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi huzurida Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni ilmiy-metodik ta’minlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazi faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori // https://lex.uz/docs/-3863838

**III. Maxsus adabiyotlar**

19. English Institute for Sport, Manchester URL: http://www.eis2win.co.uk
20. School of Sport, Exercise and Health Sciences, Loughborough University URL: http://www.lboro.ac.uk/departments/E-mail: sdc@lboro.ac.uk
21. Bundesinstitut fur Sportwissenschaft URL: http://www.bisp.de
22. Institut fur Angewandte Trainingswissenschaft URL: http://www.iat.uni-leipzig.de
23. United States Olympic Training Center Colorado Springs Cd URL: http://www.teamusa.org/about-usoc/ u-s-olympic-training-center-colorado-springs
24. United States Olympic Training Center Chula Vista http://www.teamusa.org/about-usoc/u-s-olympic-training-center-chula-vista
25. U.S. Olympic Training Center Lake Placid http://www.teamusa.org/about-usoc/u-s-olympic-training-center-lake-placid
26. Sports Science Institute of North Africa, Newlands URL: http://www.ssisa.com
27. Australian institute of Sport URL: http://www.ausport.gov.au/ais/.

**Elektron ta’lim resurslari**

28. http:// www.press-uz.info
29. http:// www.libsport.ru
30. http:// www.goskomsport.uz
31. http:// www.olympic.uz
32. http:// www.sports.uz
33. http:// www.minsport.uz



**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**JISMONIY TARBIYA VA SPORT VAZIRLIGI**

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO’YICHA MUTAXASSISLARNI ILMIY-METODIK TA’MINLASH, QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH MARKAZI**

**“Tasdiqlayman”**
**Markaz direktori**
**__________ I.Tursunaliyev**
**“___” ____01____ 2021-yil**

**JISMONIY TARBIYADA XORIJIY TAJRIBALAR**

**moduli bo’yicha**

**ISHCHI O’QUV DASTURI**

**“Jismoniy tarbiya instruktori”** yo‘nalishi bo‘yicha maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini malakasini oshirish kursi uchun

**Toshkent – 2021**

Modulning ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi bilan 2020-yil 31-dekabrda kelishilgan holda Jismoniy tarbiya va sport vazirligi tomonidan 2021-yil 4-yanvarda tasdiqlangan namunaviy o'quv reja va o'quv dasturga muvofiq ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchilar:**

| | | |
|---|---|---|
| A.R.Alimov | - | Markazning "Sport boshqaruvi" kafedrasi mudiri |
| Z.Sh.Xadiyatullayev | - | Markazning "Sport boshqaruvi" kafedrasi o'qituvchisi |
| A.Xojametov | - | Markazning Nukus filiali "Sport fanlari" kafedrasi v.v.b. mudiri |

**Taqrizchilar:**

| | | |
|---|---|---|
| K.Ziyodullayev | - | O'zDJTSU "Sport menejmenti va iqtisodiyoti" kafedrasi mudiri, i.f.n., dotsent. |
| P.Xodjayev | - | Markazning "Sport mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish metodikasi" kafedrasi professori., p.f.n., professor |

Ishchi o'quv dasturi "Sport boshqaruvi" kafedrasining 202_1_-yil _4_-yanvarda o'tkazilgan _1_ -sonli yig'ilish bayoni bilan tasdiqqa tavsiya qilingan.

**Kafedra mudiri** **A.R.Alimov**



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

**I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston". 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: "O'zbekiston", 2018. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: "O'zbekiston", 2019. – 400 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: "O'zbekiston", 2019. – 592 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: "O'zbekiston", 2020. – 400 b.

**II. Normativ-huquqiy hujjatlar**

6. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi // http://lex.uz/acts/20596
7. O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 4-sentabrdagi O'RQ-394-son "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonuni // https://lex.uz/docs/-2742233
8. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktabrdagi O'RQ-576-son "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi Qonuni // https://lex.uz/docs/-4571490
9. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni // https://lex.uz/docs/-5013007
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni // https://lex.uz/docs/-3107036
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi PF-5368-son "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni // https://lex.uz/docs/-3578121
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi PF-5538-son "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni // https://lex.uz/docs/-3893445
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni // https://lex.uz/docs/-4312785
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-dekabrdagi PF-5887-son "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni // https://lex.uz/docs/-4631208
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmoni // https://lex.uz/docs/-

## AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

### 2-mavzu. Jismoniy tarbiya va sport ta'limi sifatini oshirishning global ahamiyati

**Reja:**

2.1. Sport ta'limi sifatini oshirishning global ahamiyati.
2.2. Sport ta'limi sifatini oshirishda xorijiy davlatlar tajribasi.

AQSH, Evropa va Osiyo davlatlarida sport ishlarini tashkil etish va sportchilarni tayyorlash jarayoni. Yaponiya sporti va uni tadbiq etish. Janubiy Koreyada sport turlari va sport musobaqalarini o'tkazish jarayoni. Xitoy sporti turlari. Xitoyda sportchilarni tayyorlash jarayoni va unga quyiladigan talabalar. Xitoy sport tajribalarini amaliyotga tadbiq etish usullari. Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy sport ta'lim tizimining metodlaridan foydalanish.

### 2-mavzu. Rivojlangan xorijiy davlatlarda jismoniy tarbiya va sport ta'limi tizimi hamda uning o'ziga xos xususiyatlari.

**Reja:**

2.1. Professional sportni tashkil etishda rivojlangan davlatlar tajribasi.
2.2. Xorijiy davlatlarda ommaviy sportni tashkil etish tamoyillari.

Xorijiy davlatlarda sport musobaqalarini tashkil etish va boshqaruvida xorijiy tajribalarni joriy etish. Sport ta'limi sifatini oshirishda xalqaro tajribalarni o'rganish asosida ommaviy sport boshqaruvida xorijiy tajribalarni joriy etish uslublari bilan tanishish. Ommaviy sport yoki barcha uchun sport ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni echishda asosiy tamoyillarini o'rganish. Ommaviy sport rivojida xorijiy tajribalarni o'rganish, ommaviy sport rivojida moliyaviy, moddiy, mehnat va ilmiy-axborot resurslar bilan ta'minlanganligini o'rganish va undan amalda foydalanish.

### Dasturning axborot-metodik ta'minoti

Modulni o'qitish jarayonida ishlab chiqilgan o'quv-metodik materiallar, tegishli soha bo'yicha ilmiy jurnallar, Internet resurslari, multimediya mahsulotlari va boshqa elektron va qog'oz variantdagi manbalardan foydalaniladi.



### Modulning maqsadi va vazifalari

**Modulning maqsadi:** maktabgacha ta'lim tashkilotlari jismoniy tarbiya instruktorlari uchun xorijiy davlatlar amaliyotida sport ta'limi sifatini oshirish borasida erishilgan yutuq va tajribalarini ta'lim jarayoniga tadbiq etish to'g'risidagi bilim va ko'nikmalarini tarkib toptirishdan iborat.

**Modulning vazifalari:**

maktabgacha ta'lim tashkilotlari jismoniy tarbiya instruktorlarining sport ta'limi sifatini oshirishda xorijiy tajribalari borasida nazariy bilimlarni shakllantirish;

maktabgacha ta'lim tashkilotlari jismoniy tarbiya instruktorlarining xorijiy darajadagi pedagogik bilimlarini oshirish va kasbiy tayyorgarligi darajasini rivojlantirish, sport ta'limi sifatini oshirishda xorijiy tajribalarini pedagogik jarayonga joriy etish hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha malaka va ko'nikmalarini takomillashtirish;

maktabgacha ta'lim tashkilotlari jismoniy tarbiya instruktorlarining muntazam kasbiy faoliyatini o'sishida xorijiy tajribalar, zamonaviy ta'lim metodlari, pedagoglarning tahliliy va ijodiy fikrlash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;

maktabgacha ta'lim tashkilotlari jismoniy tarbiya instruktorlarining ta'lim jarayonidagi muammolarini xorijiy ta'lim tajribalaridan foydalangan holda hal etish usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etishga o'rgatish.

### Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

"Jismoniy tarbiyada xorijiy tajribalar" kursini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

**Tinglovchi:**

maktabgacha ta'lim tashkilotlari jismoniy tarbiya instruktorlari faoliyatini tashkil etish va uning sifatini ta'minlash borasidagi xorijiy tajribalar;

sport ta'limida zamonaviy yondashuvlar, sport ta'limini o'qitishda innovasion texnologiyalar sohasidagi xorijiy tajribalar;

sport ta'limi sifatini ta'minlashda xorijiy ta'lim texnologiyalarini qo'llashning metodik shart-sharoitlari **bilimlariga** ega bo'lishi zarur.

**Tinglovchi:**

Jismoniy tarbiyada xorijiy tajribalar modul mazmunini tanlash;
Jismoniy tarbiyada xorijiy tajribalar bo'yicha keys dasturiy xaritasini tuzish;
Jismoniy tarbiyada xorijiy tajribalar keys-texnologiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish;

sport ta'lim oluvchilarning birgalikdagi hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish sport ta'lim amaliyotiga samarali tatbiq etish **ko'nikmalarini** egallashi zarur.

**Tinglovchi:**

Jismoniy tarbiyada xorijiy tajribalar asosida o'quv jarayonini "jonli", ijodiy tashkil etish;

jismoniy tarbiyada xorijiy tajribalarni o‘rganishda innovatsion faoliyatni tashkil etish;

xorijiy tajriblarni shakllantirish asosida tafakkur yuritish orqali sport ta’lim jarayonida ijodiy muhitni yaratish;

Jismoniy tarbiyada xorijiy tajribalar asosida sport ta’limida yangi nazariy va amaliy metodlarni ishlab chiqish va ommalashtirish **malakalarini** egallashi lozim.

**Tinglovchi:**

ta’lim jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal etishda xorijiy davlatlar ta’lim tajribalaridan foydalana bilishlari;

pedagogik faoliyat olib borishda xorijiy davlatlar ta’limining ilg‘or tajribalarini amaliyotda qo‘llay bilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

xorijiy davlatlar ta’lim tizimining tajribalaridan foydalangan holda pedagogik muammolarni tahlil etish, baholash kabi malakalarni egallashi;

Jismoniy tarbiyada xorijiy tajribalarni o‘rganish asosida talabalarning izlanishli-ijodiy faoliyatga jalb etish **kompetensiyalarni** egallashi lozim.

## Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“Jismoniy tarbiyada xorijiy tajribalar” moduli ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

O‘quv jarayonida ta’limning interfaol o‘qitish metod, shakl va vositalari, pedagogik va axborot-kommunkatsiya texnologiyalarini qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

ma’ruza mashg‘ulotlarida aqliy hujum, kutish yo‘ldoshi, konseptual jadval, o‘ylang-juftlikda ishlang-fikr almashing kabi interfaol o‘qitish metod, shakl va vositalaridan;

o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda bahs-munozara, tushunchalar tahlili, pinbord, aqliy hujum, keys, guruhlarda ishlash, SWOT- tahlil jadval, T-javdal kabi interfaol o‘qitish metod, shakl va vositalarni qo‘llash nazarda tutiladi.

## Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

Modul mazmuni o‘quv rejadagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning me’yoriy-huquqiy hujjatlari”, “Maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan xorijiy til”, “Jismoniy tarbiya va sportda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari”, “Olimpiya bilim asoslari”, “Pedagogning professional kompitentligi va mahorati” kabi o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan holda tinglovchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

## Modulning sport ta’limidagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar Sport ta’limi sifatini ta’minlashda xalqaro tajribalarni tahlil etish va baholashga doir kasbiy kompitentlikka ega bo‘ladilar.



## Modul bo’yicha soatlar taqsimoti:

| № | Mavzular | Tinglovchining o’quv yuklamasi, soatlarda | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Hammasi | Auditoriyadagi o’quv yuklamasi | | | | Mustaqil tayyorgarlik |
| | | | Jami | Jumladan | | | |
| | | | | Nazariy | Amaliy mashg‘ulot | Ko‘chma mashg‘ulot | |
| 1. | Xoirjiy mamlakatlardagi jismoniy tarbiya va sport ta’limi tizimi. | 2 | 2 | 2 | | | |
| 2. | Jismoniy tarbiya va sport ta’limi sifatini oshirishning global ahamiyati. | 2 | 2 | | 2 | | |
| 3. | Rivojlangan xorijiy davlatlarda jismoniy tarbiya va sport ta’limi tizimi hamda uning o‘ziga xos xususiyatlari. | 2 | 2 | | 2 | | |
| | **Jami:** | 6 | 6 | 2 | 4 | | |

## NAZARIY TA’LIM MAZMUNI

**1-mavzu. Xoirjiy mamlakatlardagi jismoniy tarbiya va sport ta’limi tizimi**

**Reja:**

1.1. Xorijiy mamlakatlarda ta’lim tizimi va uning o‘ziga xos xususiyatlari.
1.2. Xorijiy davlatlar ta’lim tizimi taraqqiyoti va ta’lim tizimi strategiyasi.

Xorijiy mamlakatlar ta’lim tizimi strategiyasi. Xorijiy mamlakatlar ta’lim tizimida modulli o‘qitishning mohiyati. Xorijiy mamlakatlar ta’lim tizimida o‘qitishning zamonaviy shakllari. Chet el mamlakatlarida sportni boshqarish tizimi va uning umumlashgan modeli. Taraqqiy etgan mamlakatlarda sport ishlarini tashkil qilish. Xorijiy mamlakatlardagi sport sohasi ta’lim muassasalari haqida tushuncha. Xorijiy mamlakatlarda sportni boshqarishning nazariy va amaliy tajribalarini o‘rganish.